



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MARKAZIY OSIYODA BIRINCHI RENESSANS: IJTIMOYIY-SIYOSIY VA MADANIY ASOSLAR

Boygaziyev Tulqin Inatullayevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada VIII-IX asrlarda O'rta Osiyoning arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi, xalqning ozodlik uchun kurashi va mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topish jarayonlari tahlil qilinadi. Muallif islomiy renessans davridagi madaniy yuksalish, antik yunon falsafasining o'zlashtirilishi hamda Forobiy, Xorazmiy, Beruniy kabi mutafakkirlarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasini yoritib beradi. Shuningdek, Qur'on va Hadislardagi ilmga bo'lgan munosabat hamda insonparvarlik g'oyalarning davr ma'naviyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Arab xalifaligi, Somoniylar, Uyg'onish davri (Renessans), Forobiy, yunon falsafasi, islom madaniyati, ilm-fan, mustaqillik, gumanizm.

ПЕРВЫЙ РЕНЕССАНС В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ

Бойгазиев Тулкин Инатуллаевич

Шахрисабзский государственный педагогический институт, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируется процесс завоевания Средней Азии Арабским халифатом в VIII-IX веках, борьба народа за независимость и возникновение государства Саманидов. Автор освещает культурный подъем в эпоху исламского Ренессанса, освоение античного греческого философского наследия и вклад таких великих ученых, как Аль-Фараби, Аль-Хорезми и Беруни в мировую науку. Также рассматривается отношение к науке в Коране и Хадисах, влияние гуманистических идей на духовную жизнь того периода.

Ключевые слова: Средняя Азия, Арабский халифат, Саманиды, Эпоха Возрождения (Ренессанс), Аль-Фараби, греческая философия, исламская культура, наука, независимость, гуманизм.

THE FIRST RENAISSANCE IN CENTRAL ASIA: SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS

Boygaziyev Tulqin Inatullayevich

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Senior Lecturer

Abstract

This article analyzes the conquest of Central Asia by the Arab Caliphate in the 8th-9th centuries, the people's struggle for liberation, and the formation of the Samanid state. The author highlights the cultural upsurge during the Islamic Renaissance, the assimilation of ancient Greek philosophical heritage, and the contributions of great scholars such as Al-Farabi, Al-Khwarizmi, and Biruni to world science. Furthermore, the article examines the attitude towards knowledge in the Quran and Hadiths, and the influence of humanistic ideas on the spirituality of that era.

Keywords: Central Asia, Arab Caliphate, Samanids, Renaissance, Al-Farabi, Greek philosophy, Islamic culture, science, independence, humanism.

VIII asrlarda O'rta Osiyo Yaqin Sharqda yangi vujudga kelgan arab davlati — xalifalik tomonidan istilo etildi. Keskin kurashlar va qarshiliklarga qaramay, yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tafsiricha, bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi: yerli hokimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirib yuborildi, arxitektura va san'at namunalari barbod bo'ldi. Ilm-ma'naviyat fidoyilari qurbon etildi va hokazo. Xalq xalifalikka va yangi dinga qaram qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun qo'zg'aldi. VIII–IX asrlarda Abu Muslim, Shariq ibn Shayx, Sumbatmag, Muqanna boshchiligida xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ular bosqinchilarga qarshi hurlik, ozodlik uchun kurashdilar.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda yerli Somoniylar davlati vujudga keldi. Bu arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qo'lga kiritish edi. Lekin boy-feodallar, qabila boshliqlari o'rtasida ahillik, birlik, kelishuvning yo'qligi tufayli o'zaro nizo va kurashlar avj oldi. 3–4 asr davomida Somoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar va boshqa davlatlar vujudga keldi, ular uzoq umr ko'rmay yo'q bo'lib ketdi. Shu bilan bir qatorda, Yaqin va O'rta Sharqda yangi shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar avj oldi. Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, yunon madaniy boyliklari qarishib, adabiyotlarda "musulmon madaniyati" deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi. Qadimgi madaniyat an'analariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksaklikka ko'tara oldi. Shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarning kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi. O'rta Osiyo ilm-fan va ma'naviyat tarixida misli ko'rilmagan namunalar yaratdi.

Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy kabilari shu davr madaniy yuksalishining qoyasi, cho'qqilaridir. Hatto arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bag'dod akademiasining ko'rki bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan ma'lum. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidandir. Xalifa al-Mutavakkil davrida yashagan, arab badiiy nasri va ritorikasining atoqli vakili Amr ibn Bahr al-Johiz "So'z san'ati" va "Kitob al-buxalo" ("Baxillar haqida") asarlarida Qur'on oyatlari va hadislardan foydalanib, benihoya erkin fikr yuritadi. Qur'on oyatlari va hadislarining o'zida erkinlik, hurfikrlilik uchun asoslar mavjud. Qur'on va hadislarida adolat, sahoat, mehr-shafqat, ezgu ishlar maqtaladi, gunoh ishlar, jabr-zulm, baxillik, birovning haqqiga ko'z olaytirish, tekinxo'rlik qoralanadi. "Ota-onangizga hamda qarindosh qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi musofirga va qo'llaringizdagi qullaringizga yaxshilik qilingiz! Albatta, Alloh baxillik qiladigan va o'zgalarni ham baxillikka chaqiradigan hamda Alloh fazlu karamidan beradigan ne'matlarni yashiradigan, mutakabbir va maqtanchoq bo'lgan kimsalarni sevmaydi... Shubhasiz, Alloh birovga zarracha zulm qilmas. Agar zarracha yaxshilik qilinsa, unga bir necha baravar qaytarilur va o'z huzurida ulug' ajr ato qilur" [1; 37–40-oyat].

Hadisi shariflarda ham bunday deyiladi: "Iymonning afzali — sabr (tez janjal ko'tarmaslik) va keng qalbli bo'lishdir. Odamlarga taom yediringlar va shirinso'z bo'linglar. Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmand (qiynalib qolgan, muhtoj odamning) hojatini chiqaring. Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intiling, chunki ilm olishga intilish har bir mo'minga farzdir. Mo'minlarning afzali — xulq-atvori yaxshilaridir. Tangri avf etuvchidir va avf etuvchilarni yaxshi ko'radi. Alloh go'zaldir va go'zallikni yaxshi ko'radi" [2; 32–40-b.]. So'nggi hadisda odamning tashqi go'zalligi emas, ruhiy, ma'naviy olamining go'zalligi nazarda tutiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, donishmand, faylasuf olimlar islom qoidalarida mavjud bo'lgan ba'zi imkoniyatlardan foydalangan holda ilmiy-gumanistik falsafiy nazariyani ilgari surdilar. Ma'lumki, islom dinining asoschisi payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) turli masalalar yuzasidan gapirganda, Alloh va inson haqidagi ilm haqida qat'iy turib gapirgan. Qur'onning o'zida aqlga taalluqli so'zlar, refren (naqorat) 13 karra, ilm o'zagi 750 marta uchraydi [3; 5–78-b.]. Alloh haqidagi bilim, Xudoning yagonaligi va qudrati haqidagi barcha inson bilimlari ikki xil ma'noda — oddiy, dunyo haqidagi hamda diniy e'tiqod haqidagi bilimlar sifatida beriladi. Qur'on tafsirchilari ilmning mazmunini: 1) islom an'analarini egallash; 2) mistik yorqinlashuv, nurga, yog'duga erishish; 3) mantiqiy mulohaza, fikr orqali tushunish; 4) ensiklopedik, qomusiy bilim kabi yo'nalishlarga bo'ladilar [4; 86–87-b.].

Forobiy asarlaridagi yetuk, yuksak jamoa va komil insonlar haqidagi fikr-xayollar shu davr mahsulotidir. O'rta Osiyoda bu davrda uch tilda: arab, fors va turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib, Sharqning turli burchaklarigacha yetib bordi. Bu davr madaniyati o'zining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi, odamlarni o'zaro do'stlikka chaqirishi, aqlni e'zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko'tarila oldi. O'rta Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik — mustaqillikning samarasi bo'ldi. Qadimgi yunon falsafiy merosining Yaqin va O'rta Sharqdagi turli g'oyaviy-falsafiy oqimlarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan sezilarli ta'siri, ayniqsa, Sharq mutafakkirlarining falsafiy va mantiqiy ta'limotlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari arab-islom dunyosi siyosiy istilolari tugatugamas yunon madaniyati, tabiatshunosligi va falsafasini qunt bilan o'zlashtirishga kirishdilar. U davrda ko'plab ilmiy va falsafiy asarlar tarjima qilinib, ularga sharhlar yozildi.

Antik davr faylasuflari asarlarining yunonchadan suryoniy tiliga tarjima qilinishi V asrga to'g'ri

keladi. 457-yilda yashab o'tgan Ibasu Porfiriyning "Введение" ("Kirish") asarini tarjima qildi. VIII asrga kelib yunon mutafakkirlarining asarlari suryoniy tilidan arabchaga tarjima qilina boshlandi. IX asrdan boshlab Aristotel va boshqa yunon mualliflarining ilmiy asarlarini suryoniy tilidan, shuningdek, yunoncha asl nusxasidan arab tiliga tarjima qilish ishlari jadallashdi. IX asr ilmiy tarjima faoliyatining eng yuksak davri hisoblanadi. Arab tili barcha sohalarida — fan, falsafa va huquqshunoslikda mustahkam o'rin egallaydi. Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda va xalifalikning boshqa shaharlarida yunonlarning ilmiy-falsafiy merosini o'rganishga qiziqish yanada ortdi, ilmiy muassasalar, xususan, Donishmandlar uyi, ilmiy kutubxona, rasadxonalar qurildi [5; 25-b.].

Xalifa Ma'mun davrida ilmiy va tarjimonlik faoliyati ayniqsa gullab-yashnadi. Xususan, Evklid, Aristotel, Gippokrat, Arximed, Apolloniy, Galen kabi yunon olimlarining tibbiyot va tarixga oid qator kitoblari tarjima qilindi. Aristotelning mantiqiy-ilmiy ishlarining tarjima qilinishi va ularning Sharq tahlilchilari tomonidan sharhlanishi, shuningdek, arab mutafakkirlarining ajoyib mantiqiy ishlari Fransiya va Ispaniyada XII–XIII asrlarda ilmiy adabiyotlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan tarjima faoliyatida muhim o'rin tutgan.

Tarjima qilingan asarlar Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari, shu jumladan, Markaziy Osiyo olimlari tomonidan chuqur o'zlashtirildi va rivojlantirildi. Tarjimonlar Aristotel asarlarini yaxshiroq tushunish uchun uning sharhlovchilari Teofrast, Ammoniy Sakkas, Aleksandr Afrodeziyskiy va Galen asarlarini ham tarjima qilganlar. Shunga qaramasdan, Yaqin va O'rta Sharqqa Aristotelning ba'zi asarlari buzilgan ko'rinishda, unga yot bo'lgan unsurlar bilan qo'shilgan holda kirib keldi. Lekin F.T. Fadeyevning ta'kidlashicha, mantiqqa oid asarlarning tarjimasi axloq va metafizikaga oid asarlariga qaraganda asl nusxaga yaqinligi bilan ajralib turgan [6; 45–46-b.].

Uyg'onish madaniyati O'rta asrlarda Sharqda boshlangan, u G'arbgga katta ta'sir ko'rsatib, so'ng Yevropaga ko'chgan. Mustaqillik birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashish natijasida qo'lga kiritilishi hamda saqlab qolinishi mumkinligi tarixda bir necha bor isbotlangan. Mustaqillik ilm-fan, ma'rifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishish mumkin. Tarixda dono shohlar, hokimlar ham o'z saroyiga ilm-u fozillarni, ziyolilarni to'plaganlar, ularga imkon tug'dirib, kuch-g'ayratlarini mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirganlar.

Mustaqillik va Uyg'onish, mustaqillik va yuksalish uzviy bog'liqdir, u bizdan aql-idrokni, bilimni, iste'dod-u qobiliyatni, faollikni, kuch-g'ayratni talab etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, VIII–IX asrlarda O'rta Osiyo hududida kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va arab istilosiga qarshi olib borilgan ozodlik kurashlari mintaqada nafaqat yangi davlatchilikning, balki intellektual yuksalish — Birinchi Renessansning poydevorini qo'ydi. Somoniylar davlatining tashkil topishi bilan qo'lga kiritilgan siyosiy mustaqillik ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida misli ko'rilmagan rivojlanishga yo'l ochdi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. O'rta Osiyo mutafakkirlari qadimgi yunon falsafasi, hind ilmi va islomiy qadriyatlarini uyg'unlashtirib, umuminsoniy ahamiyatga ega madaniy-ma'rifiy meros yaratdilar. Qur'oni Karim va hadislardagi ilm, adolat hamda insonparvarlik g'oyalari davr olimlarining erkin va gumanistik qarashlari shakllanishiga asos bo'ldi. Forobiy, Xorazmiy va Beruniy kabi allomalarning ilmiy merosi Sharq va G'arb taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatib, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, Forobiyning "fozil jamoa" va "adolatli rahbar" haqidagi qarashlari tinchlik, adolat va barqarorlik jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur davr madaniyati insonparvarlik ruhi va aqlni ulug'lashi bilan yuksak umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarildi. O'rta Osiyo mutafakkirlari merosi bugungi kunda Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyoti va Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda muhim tarixiy tajriba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'oni Karim. Niso surasi, 4-sura, 37–40-oyatlar.
2. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 32–40.
3. Sultonov T. Islom falsafasida aql-zakovat talqini // Sino jurnali. – 2008-yil qish, 2009-yil bahor. B.5–78.
4. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1971. B. 86–87.
5. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 25.
6. Фадеев Ф. Т. Античное философское наследие в арабоязычной науке IX–XI вв.: дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – С. 45–46.